TOSHKENT VILOYATI YANGIYO`L SHAHAR HOKIMI
QARORI

2023 - yil 25 - oktabr 288-10-196-Q/23 Yangiyo‘l shahar hokimligi

Yangiyo‘l shaharda 2024-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 38-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 10-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida **qaror qilaman:**

1. Shahardagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar sonidan kelib chiqib, Yangiyo‘l shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun 195 ta ish o‘rinlari band qilinganligi jumladan:

14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 26,8 foiz (51 kishi);

Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 58,4 foiz (111 kishi);

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 2.1 foiz (4 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3,1 foiz (6 kishi);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 3,1 foiz (6 kishi);

jazoni o‘tash muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 6.3 foiz (12 kishi);

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq tashkil etilsin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha Yangiyo‘l shahar komissiya tarkibi 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. 2024-yilda Yangiyo‘l shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo‘yicha korxona va tashkilotlar kesimida ish o‘rinlarini tashkil etish ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ilovada ko‘rsatilgan korxona va tashkilotlar rahbarlari belgilangan ish o‘rinlarini tashkil etilishini to‘liq ta’minlasin.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha ushbu qarorni bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

7. Ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlar uchun O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-may kuni 3163-son bilan ro‘yxatdan o‘takzilgan O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019-yil 10-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat

jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug‘iga asosan belgilangan tartibda kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslar uchun har bir xodimga 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi belgilab qo‘yilsin.

8. Yangiyo‘l shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (I.Ibragimov) besh kun muddatda ushbu qarorning 1-bandida ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

9. Yangiyo‘l shahar hokimining 2022-yil 28-oktyabrdagi 362-10-196-Q/22-son qarori 2023-yil 31-dekabr kunidan bekor qilinsin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab uch oydan so‘ng kuchga kirishi belgilansin.

11. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Isanbayev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **D.Sultanov**

Yangiyo‘l shahar hokimining
2023-yil 25-oktabrdagi
288-10-196-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha Yangiyo‘l shahar komissiya

TARKIBI

A.Isanbayev	-	Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, **Ishchi komissiya raisi**
A.Ibragimov	-	Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i **komissiya raisining o‘rinbosari**

A’ZOLARI

Z.Alimova	-	Shahar hokimining o‘rinbosari-oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i
M.Narbayev	-	Shahar hokimining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
X.Akromov		Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari
A.Raimkulov	-	Shahar Statistika bo‘limi boshlig‘i
R.Samandarov	-	Shahar Tibbiyot birlashmasi boshlig‘i
M.Alimova	-	Shahar Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
D.Kalimbetova	-	Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining Ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bek ofis bosh mutaxassisi, **Ishchi komissiya kotibi**

Izoh: komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Yangiyo‘l shahar hokimining
2023-yil 25-oktabrdagi
288-10-196-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Yangiyo‘l shahar bo‘yicha 2024-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlariga ishga joylashtirish bo‘yicha
MANZILLI JADVAL

№	Kvota ish o‘rni belgilangan korxona tashkilot nomi	INN	Ularda ishlovchilar soni	2024-yil uchun kvota ish o‘rinlari rejasi yillik	Yolg‘iz ota onalar hamda 14 yoshgacha va nogiron bolalikda	talim muassasa-larini tugatgan yoshlar	muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar	Nogiron-lar	pensiya yoshiga yaqinlashib qolganlar	jazoni o‘tash muassasa-laridan bo‘shatilganlar
1	1 MTM	207003831	36	3	1	2				
2	2 MTM	207026921	26	2		2				
3	3 MTM	207030751	56	3	1	2				
4	4 MTM	207026938	30	1		1				
5	5 MTM	207003824	34	2		2				
6	6 MTM	207003816	54	4	2	2				
7	7 MTM	207026945	42	3	1	2				
8	8 MTM	207003809	35	3		3				
9	9 MTM	207003776	59	4	1	2				
10	10 MTM	207026953	36	3	1	2				
11	11 MTM	207003769	39	3	1	2				
12	12 MTM	207003791	76	6	3	3				
13	13 MTM	207003784	56	4	1	3				
14	14 MTM	308111299	34	3	1	2				
15	Xalq ta’limi bo‘limi	207267314	37	1		1				
16	1 MAKTAB	206919554	88	3	1	2				
17	2 MAKTAB	201122919	79	3	1	2				
18	3 MAKTAB	206919625	117	4	1	2			1	
19	4 MAKTAB	206919618	76	4	1	2			1	

20	5 MAKTAB	206919601	149	4	1	3				
21	6 MAKTAB	206919593	154	4	2	2				
22	7 MAKTAB	206919546	88	3	1	2				
23	8 MAKTAB	206919585	62	3	1	2				
24	9 MAKTAB	206919522	104	4	1	2			1	
25	10 MAKTAB	206919578	150	5	1	2		1	1	
26	12 MAKTAB	206919514	39	2		2				
27	13 MAKTAB	206915235	56	3	1	2				
28	BO‘SM	207267930	40	2		2				
29	Madaniyat va sanat maktabi	202918788	98	4	1	3				
30	Yangiyo‘l shahar Agrar texnologiyalari texnikumi	200470258	31	2	1	1				
31	Tibbiyot texnikumi	200470154	66	3	1	2				
32	1-sonli kasb-hunar maktabi	200470234	88	4	1	2	1			
33	2-sonli kasb-hunar maktabi	206774680	60	3	1	2				
34	Tibbiyot birlashmasi	20731452	1050	40	10	26	1	1	1	1
35	DSENM	207267511	58	2	1	1				
36	Obodonlashtirish bo‘limi	207268390	147	14	2	1		1	1	9
37	"welltex "MChJ	305089519	52	4	1	3		1		
38	Master Global Plyus MChJ	301947727	192	7	1	4	2			
39	Sofiya Gold textile MChJ	310016384	53	4	1	1		1		1
40	"BEST HAIR PRODUCTS" MChJ	302184925	153	8	4	4				
41	Alyukabel payrov	304979313	146	6	1	3		1		1

	jami		**4046**	**190**	**51**	**111**	**4**	**6**	**6**	**12**